IQTIDORLI TALABALARDA QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Temirov Nabijon Soliyevich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi professori

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchi-yoshlarning bilish, ijodiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, qobiliyatlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va intellektual o‘yinlarning ahamiyati tahlil qilingan. Xorijiy tajriba hamda mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: qobiliyat, ijodiy qobiliyat, iqtidor, bilish qobiliyati, intellektual rivojlanish, kreativlik, iqtidorli yoshlar.

Аннотация. В статье освещаются вопросы развития познавательных,творческихиспециальныхспособностейучащейся молодежи, выявления и поддержки одаренных молодых людей. Также анализируется значение современных педагогических технологий, интерактивных методов и интеллектуальных игр в развитии способностей. Рассматриваются зарубежный опыт и возможности, созданные для одаренной молодежи в нашей стране.

Ключевые слова: способности, творческие способности, одаренность, познавательные способности, интеллектуальное развитие, креативность, одаренная молодежь.

Abstract. The article discusses the development of cognitive, creative, and special abilities of students, as well as the identification and support of gifted youth. It also analyzes the importance of modern pedagogical technologies, interactive methods, and intellectual games in developing students' abilities. The study highlights international experience and opportunities created for gifted young people in Uzbekistan.

Keywords: abilities, creative abilities, giftedness, cognitive abilities, intellectual development, creativity, gifted youth

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim sohasida talabalarning ta’lim olishga qiziqishini o‘rganish, layoqati, ijodiy qobiliyati, maxsus qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish, ixtisoslashtirish va tabaqalashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. YUNESKO tomonidan

belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida talabalarni ijodiy qobiliyati va tafakkurini rivojlantirishga o‘qitishning STEAM tizimi asoslarini tatbiq etish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, yangi innovatsion va interaktiv shakllarni joriy etish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini tashxis etish, ularni ma’naviy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashning innovatsion modelini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Pedagogika va psixologiya fanlarida shaxs qobiliyati va uning darajasi, ijodiy qobiliyati mahsulini rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga dunyo miqyosida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirishildi. Amerikalik olimlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda maxsus dasturlar ishlab chiqdi. Rossiyada esa o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini o‘stirishda innovatsion yondashuv, ya’ni innovatsion texnologiyalar va interfaol mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradigan tizim, deb e’tirof etildi. Janubiy Koreya esa boshlang‘ich maktabdan universitetgacha bo‘lgan barcha ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlagan birinchi mamlakat sanaladi. Kollejlarda «Qo‘shimcha ta’lim», «Kasbiy tayyorgarlik», «Oliy ta’limga kirish uchun tayyorgarlik», «Kasb-hunar ta’limiga kirish» kurslari vositasida ta’lim olishga kuchli e’tibor qaratgan davlat Buyuk Britaniyadir. Singapur davlati esa maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalarini yuqori darajada rivojlantirishda rahbarlarning kreativ fikrlashi va yondashishi, mustaqil fikrlashi, ta’limni real hayot bilan bog‘lashga alohida urg‘u berilgani bilan dunyoga tanildi, ta’lim va tarbiya mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida bugungi kunda ilg‘or davlatlarning bu boradagi tajribalarini o‘rganish va amalga tatbiq etish tamoyili asosida ish olib borilmoqda. Yoshlarni «Zakovat» intellektual o‘yini, «Besh tashabbus – besh imkoniyat» shiori ostida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan hamkorlikda ma’naviyat festivallari tashkil etilayotgani, oliy ta’lim muassasalari, maktab, kollej va texnikumlarda amalga oshirilayotgan bir qator ilmiy-amaliy loyihalar yuqori malakali va qobiliyatli mutaxassis hamda kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi. Yoshlarga keng yo‘l ochish, ularning ijodiy qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam berish davlatimiz, Prezidentimiz e’tiboridagi masalalardan biriga aylangan.

Ijodiy qobiliyatli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Respublika miqyosida tashkil etilgan «Nihol» va «Zulfiya» mukofoti tanlovlari, «Yangi avlod», «Yoshlar ovozi», «Yosh kitobxon» ko‘rik-tanlovlari ana shu e’tiborning yorqin namunasidir.

Ijodiy qobiliyat individual xususiyatga ega. Shu bois iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularni rag‘batlantirish alohida e’tiborni talab etadi. Bu, o‘z navbatida, murakkab jarayon bo‘lib, uning uchun mutaxassislarni jalb etish, alohida tashkiliy-texnik va pedagogik tayyorgarlik asosida ish olib borish lozim bo‘ladi. Bu jarayonda qobiliyat zamirida mujassam bo‘lgan pedagogik va psixologik xususiyatlarni inobatga olish muhim sanaladi. Maxsus adabiyotlarda shaxs qobiliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra uchta, ya’ni bilish, ijodiy va hissiy guruhlarga bo‘linishi qayd etilgan.

Bilish qobiliyati so‘nggi 25 yil ichida amerikalik psixologlar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilmoqda: u ayni vaqtda «aqliy-ijodiy qobiliyat» sifatida ham e’tirof etilmoqda. Gilford va uning izdoshlari shaxs aqliy qobiliyati darajasini belgilovchi 16 omilni asoslab bergan. Ular, jumladan, ko‘chuvchanlik, ravonlik, tafakkur aniqligi, o‘ziga xoslilik, muammoni izlashdagi ziyraklik kabi omillardan iborat. O‘quvchi intellekt bo‘yicha ham ijodiy qobiliyatga ega, zukko, zehni tez, masalani tez va chuqur anglash, xotira va yodlash qobiliyati mustahkam, tez bilim egallash va tinimsiz izlanishga qodir bo‘lishi kerak. Ularda tabiatan o‘z ijodiy qobiliyatini namoyon qila olish, ta’limga yangicha yondashish, adabiyotlarni ko‘p o‘qish, ilmiy-ijodiy izlanish, milliy qadriyatlarni e’zozlash, Vatanni sevish, she’riyatni chuqur tushunish, erkin fikrlash, mustaqil fikrlay olish kabi qobiliyatlar kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, ziyrak, topqir, diqqatini taqsimlay oladigan, axborotni tez qabul qiladigan, eslash qobiliyati kuchli, hozirjavob, chuqur fikr yurita oluvchi, tasavvuri keng, barcha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallay olgan bo‘lishi lozim.

Oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilayotgan maqsadli mashg‘ulotlar hamda auditoriya va ta’lim muassasasidan tashqari sharoitda talabalarning «Intellektual ring», «Zakovat», «O‘yla, izla, top!», «Iqtidorlilar oramizda», «O‘tkir zehnlilar» kabi intellektual o‘yinlar yoki amaliy treninglarga faol jalb etilishi ularning aqliy qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi, ijodiy-aqliy mushohada yuritish malakasini rivojlantiradi, tafakkurini boyitadi. Yuqorida sanab o‘tilgan mashg‘ulotlar yoki tadbirlarning muayyan mavzular bo‘yicha tashkil etilishi, o‘quvchilar e’tiboriga havola etiladigan topshiriqlar mazmunining imkon qadar ijtimoiy-siyosiy voqeliklar, ekologik jarayon, pedagogik ta’lim muammolari, iqtisodiy rivojlanish, texnologik taraqqiyot hamda ijtimoiy munosabatlar mavzulariga bag‘ishlanishi o‘quvchilarda ularga nisbatan qiziqishni shakllantiradi. Shuningdek, kerakli ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish, nazariy bilimlarini amaliyot, hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari uchun poydevor yaratadi. Bilish qobiliyatining rivojlanishi natijasida talabalar muammoni ko‘tarib chiqish, maqsadni belgilash, ular yechimini ta’minlovchi vositalarni

belgilash, tahlil (analiz), sintez, istiqbolni belgilash, xulosalar chiqarish va yangi maqsadni asoslash layoqatiga ega bo‘lib boradi. Zero, qobiliyatli bolalar voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ancha erta anglay olish va ularga muvofiq xulosalar chiqarish layoqatiga egaligi bilan ajralib turadi. Ular odatda muqobil model va tizimlarni yaratishga qiziqadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm. Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida shaxsning aqliy qobiliyatini namoyon etishi va uning darajasini baholash maqsadida turli metodikalar qo‘llaniladi. Ularning orasida «Aqliy hujum» va «Intervyu» eng ommaviy sanaladi. «Intervyu» va «Keys» metodi ongning tashqi muhitga ko‘nikishini ta’minlovchi nazorat mexanizmlari, aqlning ijodiy imkoniyatlari namoyon bo‘lishini ifodalaydi, to‘sqinlik qiladigan mexanizmlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ijodiy jarayon ikki, ya’ni g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni tanqidiy baholash, bir mavzuni yoritishda kreativ savol-javoblar asosida ma’lumot berish orqali keyingi bosqichga o‘tiladi. Ilm-fan yoki bilim olishning ma’lum yo‘nalishlarida yuqori natijalarni qayd etish akademik yutuqlarga erishishni kafolatlovchi qobiliyatlar sifatida e’tirof etilgan. Talabalar bilish (aqliy) qobiliyati, shu jumladan, bevosita fikriy va amaliy harakatlari bilan akademik yutuqlarga erishishni kafolatlovchi qobiliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ham guruhlarga bo‘linadi.

Matematika, tabiiy (fizika, geografiya, biologiya) fanlarini o‘zlashtirish, o‘qish, shaxmatga bo‘lgan kuchli qiziqish va ehtiyojga ega shaxslar akademik yutuqlarga erishadi va o‘zlarida matematik qobiliyat – hisob-kitob, o‘lchash va predmetlarni tartibga solishga katta qiziqish yuzaga keladi, yoshiga nisbatan matematik qonuniyatlarni tushunish layoqati shakllanadi, matematik ramzlar (raqamlar va belgilar)ni oson tushunish va yodda saqlab qolishini namoyon etadi, ko‘paytirish va bo‘lishga oid har qanday misollarni osonlik bilan bajaradi, yirik hajmdagi vaqt hisobi va pullarni ajrata oladi, matematikaga aloqador bo‘lmagan mashg‘ulotlarda ham matematik tushuncha va ko‘nikmalarini namoyish etadi. Tabiiy (biologiya, fizika, geografiya) fanlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyat – predmetlar va hodisalarga nisbatan diqqat-e’tiborli, tabiiy fanlar va tabiatga daxldor tushuncha va bilimlarni tasniflash, tabiiy-ilmiy va amaliy tajribalarga qiziqadi, ro‘y berayotgan voqea-hodisalar sabab va oqibatlarini tushuna oladi, o‘ziga xos abstrakt xotiraga ega bo‘ladi.

O‘qish qobiliyatiga ega shaxs ko‘p o‘qiydi, so‘z boyligi ortadi, murakkab sintaksis tuzilmalardan foydalanadi, mutolaa jarayonida diqqatini uzoq vaqt saqlab tura oladi, o‘qiyotgan narsasini tushunib, mohiyatini

to‘g‘ri anglaydi, xotirasida ramz, harf va so‘zlarni uzoq vaqt saqlaydi, ifodali o‘qish orqali ijodiy qobiliyatini namoyish etadi, alohida notiqlik mahoratiga ega bo‘ladi.

Bilish yoxud aql keng ma’noda sezish, idrok etish, tafakkur va hayotni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisidan iboratdir. Kishi aqli uning asosiy maqsadga erishishga qaratilgan muvaffaqiyati bilan boshlanadi. Insoniyat paydo bo‘lganidan beri barcha olimu fozil, shoiru yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o‘z davrining e’tiborli kishilari darajasiga ko‘tarilgan.

Aqlning birinchi bosqichi – yodlay olish. Ikkinchi bosqichi – tayoqchalar bilan chiza olish, so‘ngra qalamdan foydalanish. Uchinchi bosqichi esa hissiy obrazlarni egallashdan iborat. Ibn Sino aql deganda insondagi tug‘ma iste’dod, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyati tushuniladi, deydi. Iqtidorli shaxs qobiliyatining yana bir ko‘rinishi – bu ijodiy qobiliyat sanaladi. Kuzatuvchanlik, xotira mustahkamligi, obrazli tasavvur hosil qilish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, yangiliklar yaratishga intilish, izlanuvchanlik, o‘z-o‘zini tanqidiy baholash, fantaziyaga boylik, eng oddiy unsurlarni ham ilg‘ay olish ijodiy qobiliyat sifatlari sirasiga kiradi.

Farg‘ona davlat universiteti pedagogika, psixologiya va san’atshunoslik fakulteti 3-kurs talabalari o‘rtasida «Pedagogik kvalimetriya» fani misolida xotirasi kuchli talabalarni tanlab olish va ular bilan maqsadli ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazildi. Tanlovda 52 nafar talaba ishtirok etdi. Kuchli xotiraga ega bo‘lgan 3 nafar talaba aniqlandi. Bunda ishtirokchilarning o‘zi tayyorlagan matnni yoddan aytib berish va uni ilmiy tahlil qilish qobiliyati inobatga olindi. Talabalarning o‘z qobiliyatini bilishi ularning kelgusida kuchli yoki kuchsiz tomonlarini tahlil qila olishga o‘rgatadi. Ko‘rish, eshitish va sezgi organlari har kimda har xil rivojlangan bo‘ladi, lekin har kimning o‘z shaxsiy imkoniyatlarini bilishi kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Bu usul rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada iqtidorli bolalarni izlab topish va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois bizning mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda, ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablari tashkil qilindi, xalqaro tanlovlarda yuksak natijalarga erishayotgan yoshlarimiz va ularning ustozlari katta miqdorda moddiy rag‘batlantirilmoqda, yosh mutaxassislarimiz rivojlangan mamlakatlarga o‘qish va tajriba almashishga yuborilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Guilford, J. P. Creativity. American Psychologist, 1950, Vol. 5, No. 9. P. 444–454.

2.Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. Bensenville, IL: Scholastic Testing Service.

3.Выготский, Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Просвещение.

4.Богоявленская, Д. Б. Психология творческих способностей. Москва: Академия.

